

Elektr energiyasi yetkazib berishning to'xtalishi yoki to'xtatib qo'yilishi sabablari to'g'risida belgilangan tartibda axborot olish;

"Ta'minotchi korxona"ga iste'mol qiladigan energiya hajmlarining o'zgartirilishi to'g'risida belgilangan tartibda takliflar kiritish. Bunda energiyaning shartnomadagi hajmini o'zgartirish bo'yicha taklif mo'ljallanayotgan o'zgartirishdan oldin, tegishli miqdori uchun 100 % to'lov amalga oshirilgan taqdirda, 10 kundan kechikmay (joriy oy tugagungacha) berilishi lozim;

elektr energiyasi to'liq hajmda yetkazib berilmasligi yoki sifat ko'satkichlari davlat standartlariga muvofiq bo'lмаган elektr energiya yetkazib berilishi oqibatida yetkazilgan zararni belgilangan tartibda qoplatish;

Shartnomani qonun hujjalariiga muvofiq bir tomonlama tartibda bekor qilish;

Shartnoma bekor qilganda foydalanilmagan elektr energiyasi miqdori uchun to'langan mablag'ni qaytarilishini talab qilish;

Elektr energiyasi yetkazib berilishi to'xtatilganda yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish;

elektr ta'minoti shartnomasini tuzishda va bajarishda yuzaga kelayotgan nizolarni hal etish uchun sudga, monopoliyaga qarshi davlat organiga yoki bo'ysunuvi bo'yicha yuqori organga (mansabdor shaxsga) murojaat qilish.

"Iste'molchi" qonun hujjalariiga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega.

4.2. "Iste'molchi" quyidagilarga majbur:

hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan belgilangan elektr energiyasini iste'mol qilish rejimiga rioya etish;

foydalanilgan elektr energiyasi (quvvati) uchun o'z vaqtida haq to'lash;

ishjatilayotgan elektr qurilmalari, asboblar va asbob-uskunalarining zarur texnik holatini va iste'molchilarining elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalariiga rioya qilinishini ta'minlash, hududiy elektr tarmoqlari korxonasiga yoki elektr ta'minoti korxonasiga elektr asbob-uskunalarining nosozligi to'g'risida xabar qilish;

elektr energiyasidan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

«O'zenergoinspeksiyasining» yozma ko'rsatmalarini o'z vaqtida bajarish;

Elektr qurilmalarining tuzilishi qoidalari talablariga rioya etish;

o'matilgan tartibda hududiy elektr tarmoqlari korxonasi vakiliga elektr energiyasini hisobga olish asboblarini ko'rishiiga imkon berish;

yil mobaynida yangidan ishga tushiriladigan elektr qurilmalaridan foydalanish boshlanishidan kamida bir oy oldin elektr energiyasining zarur miqdori uchun 100 % oldindan to'lov amalga oshirilgan taqdirda "Ta'minotchi korxona"ga buyurtmanoma berish;

kelgusi yil uchun elektr energiyasiga bo'lган ehtiyojni aniqlashda elektr energiyasini elektr tarmoqlaridan uzatishda, ishlab chiqariladigan maxsulotning (ishlar turlarining) texnologik